BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KONFLIKTOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MULOQOT MADANIYATINING O‘RNI

Azimova Osiyoxon Adxam qizi
TDTU tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22852757

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida muloqot madaniyatini yuksaltirish orqali ularning konfliktologik madaniyatini rivojlantirish muammosi tadqiq etilgan. Ta’lim jarayoniga zamonaviy raqamli vositalar va interaktiv metodlarni joriy etish orqali talabalarning nizoli vaziyatlarni boshqarish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-metodik ahamiyati va amaliy samaradorligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, muloqot madaniyati, konfliktologik madaniyat, pedagogik nizo, raqamli pedagogika, akme-pedagogika, kasbiy kompetensiya.*

Аннотация. *В данной статье исследуется проблема развития конфликтологической культуры будущих учителей начальных классов посредством повышения их культуры общения. Обоснована научно-методическая значимость и практическая эффективность формирования у студентов компетенций управления конфликтными ситуациями путем внедрения в образовательный процесс современных цифровых средств и интерактивных методов.*

Ключевые слова: *начальное образование, культура общения, конфликтологическая культура, педагогический конфликт, цифровая педагогика, акме-педагогика, профессиональная компетенция.*

Abstract. *This article explores the problem of developing the conflictological culture of future primary school teachers by enhancing their communication culture. The scientific and methodological significance, as well as the practical effectiveness of forming students' conflict management competencies through the introduction of modern digital tools and interactive methods into the educational process, have been substantiated.*

Keywords: *primary education, communication culture, conflictological culture, pedagogical conflict, digital pedagogy, acme-pedagogy, professional competence.*

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi uzluksiz ta’lim tizimining tayanch nuqtasi bo‘lib, u nafaqat akademik bilimlarni o‘zlashtirish, balki shaxsning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi, kognitiv va emotsional rivojlanishi kechadigan poydevor davri hisoblanadi. Bugungi kunda jahon ta’lim maydonida, xususan, respublikamiz ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida o‘qituvchilarga nisbatan qo‘yilayotgan kasbiy talablar tubdan o‘zgarmoqda. Zamonaviy pedagogdan an'anaviy fan bilimlaridan tashqari, yuksak darajadagi kommunikativ kompetensiyalarni, jumladan, muloqot madaniyatini mukammal egallash qat’iy talab etilmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari (7-11 yosh) va ularning maktab ijtimoiy muhitiga moslashish jarayonining murakkabligi ta’lim muassasalarida turli ko‘rinishdagi tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi tabiiy holatdir. Ushbu jarayonda muloqot madaniyati o‘qituvchining kasbiy qiyofasi va pedagogik mahoratini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib, u bevosita konfliktologik madaniyatning konseptual negizini tashkil etadi

[1]. Pedagogik amaliyot va ilmiy kuzatuvlar shuni tasdiqlaydiki, ta’lim muassasalarida yuzaga keladigan ziddiyatlarning asosiy qismi aynan pedagogik jarayon subyektlari (o‘qituvchi – o‘quvchi, o‘qituvchi – ota-ona, o‘qituvchi – maktab ma’muriyati) o‘rtasidagi kommunikativ to‘siqlar, empatiyaning yetishmasligi va noto‘g‘ri axborot almashinuvi oqibatida kelib chiqadi.

Shu sababli, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’lim muassasalarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish va ularni konstruktiv hal etish uchun, avvalo, samarali kommunikatsiya mexanizmlarini chuqur o‘zlashtirishlari zarur. Bu jarayonda muloqot madaniyati shunchaki axborot uzatish vositasi emas, balki nizoli vaziyatni to‘g‘ri tashxis qilish, tomonlar o‘rtasida ishonchli munosabat o‘rnatish va ziddiyatni ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantiruvchi omilga aylantirish quroli bo‘lib xizmat qiladi. Binobarin, oliy ta’lim tizimida talabalarning muloqot madaniyatini uzluksiz shakllantirib borish – ularda kasbiy-pedagogik va barqaror konfliktologik madaniyatni rivojlantirishning kafolati hamda metodologik asosi hisoblanadi.

Ilmiy manbalarda muloqot madaniyati va konfliktologiya masalalari, xususan, ta’lim muassasalarida ijtimoiy-pedagogik ziddiyatlarning kelib chiqishi hamda ularni boshqarish mexanizmlari keng o‘rganilgan. Bugungi kunda pedagogik konfliktologiya mustaqil fan va muhim tadqiqot obyekti sifatida to‘liq shakllanib ulgurgan bo‘lib, uning doirasida shaxslararo konfliktlar, muloqotdagi to‘siqlar va ularning psixologik aspektlari tadqiq etilmoqda [1]. Konfliktologiya nazariyasi doirasida A.Ya. Antsupov va A.I. Shipilovlar o‘z tadqiqotlarida nizolarni boshqarishda ishtirokchilarning muloqot strategiyalarini asosiy vosita sifatida ajratib ko‘rsatishgan hamda turli xil soha vakillarining o‘zaro munosabatlari orasidagi mojarolarni hal etishning uslublarini belgilab berishgan [2]. Shuningdek, pedagogik konfliktologiya rivojida M.M. Ribakovaning tadqiqotlari katta ilmiy ahamiyat kasb etadi [3]. Olima maktab hayotidagi munosabatlarni tahlil qilib, “o‘qituvchi-o‘quvchi” ko‘rinishidagi muammolarning aksariyatida asosiy sababchi o‘qituvchining o‘zi ekanligini ta’kidlaydi; shu munosabat bilan o‘quvchilar bilan normal va sog‘lom muloqotni yo‘lga qo‘yish uchun pedagog, eng avvalo, mojarolarning oldini olish bo‘yicha maxsus konfliktologik bilim va kommunikativ ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozimligini asoslagan [3]. Bu borada S.V. Banikina ham maktab jamoasidagi mojarolarning topologiyasini ishlab chiqib, ta’lim-tarbiya jarayonida interaktiv muloqot va konfliktologik madaniyatning o‘qituvchi uchun o‘ta muhim ekanligini ochib bergan [4]. O‘zbekiston Respublikasida ham yoshlarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash, o‘qituvchining kasbiy, axloqiy fazilatlarini, xususan, muloqot va konfliktologik madaniyatini shakllantirishning ilmiy-nazariy masalalari O. Musurmonova, N. Egamberdiyeva, X. Ibragimov, B. Xodjayev hamda M.T. Axmedova kabi qator olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan [1]. Boshlang‘ich ta’lim o‘ziga xos psixologik va emotsional yondashuvni talab etganligi sababli, bo‘lajak o‘qituvchilarda axloqiy-kommunikativ me’yorlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Olimlarning ta’kidlashicha, muloqot madaniyati past bo‘lgan mutaxassislarda konfliktogenlar — ya’ni ziddiyatga olib kelishi mumkin bo‘lgan so‘zlar, amallar yoki harakatlar salmog‘i o‘ta yuqori bo‘ladi [1]. Muloqot jarayonida bunday konfliktogen omillarga bee'tiborlik pedagogik inqirozning chuqurlashishiga va halokatli nizolarga olib keladi. Aksincha, yuksak muloqot madaniyatiga ega pedagog har qanday halokatli nizoni rivojlantiruvchi darajaga aylantira oladi [5]. Negaki, mohir pedagog va nozik psixolog sifatida o‘qituvchi o‘zining nazariy bilimlari hamda pedagogik sezgirligi vositasida o‘quvchilar bilan oson aloqaga kirishadi va munosabatlarni mohirlik bilan boshqaradi [1]. Boshlang‘ich sinf yoshidagi tarbiyalanuvchi muomala odobini va nizoli vaziyatlardagi xatti-harakatlarni asosan tarbiyachi (o‘qituvchi)

timsolida anglab oladi, shu bois ustoz o‘zining muloqot uslubi bilan o‘quvchilar uchun bir umrlik ideal va namuna bo‘lib xizmat qilishi ilmiy tasdiqlangan [1].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida konfliktologik madaniyatni shakllantirish jarayoni ularning muloqotdagi xatti-harakatlarini tizimli korreksiya qilishni talab etadi. Pedagogik faoliyatda nizolarni boshqarish, ularning rivojlanishini bashorat qilish va oldini olish maxsus psixologik-pedagogik bilim va texnologiyalarga tayanishni taqozo qiladi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, konfliktlarni ijobiy hal etish uchun o‘qituvchidan yuksak muloqot madaniyati, faol tinglash salohiyati va ziddiyatli vaziyatlarda to‘g‘ri strategiyalarni egallash talab etiladi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotimiz doirasida bo‘lajak mutaxassislar uchun ziddiyatli vaziyatlarni boshqarishning optimal mexanizmlari tizimlashtirildi. Ta’lim jarayonida nizolarning oldini olish va ularni konstruktiv hal etish bo‘yicha amaliyotga joriy etilgan asosiy metodlar hamda ularning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan.

Pedagogik nizolarning oldini olish va boshqarish mexanizmlari

Konfliktlarni boshqarish metodi	**Metodning ilmiy-amaliy mohiyati**	**Kutilayotgan ijtimoiy-pedagogik natija**
Konfliktogenlardan xoli muloqot	Muloqotda ustunlik ko‘rsatish, agressiya va egoizmdan saqlanish hamda raqibning konfliktogeniga xuddi shunday javob qaytarmaslik.	Ziddiyat eskalatsiyasining (kuchayishining) oldi olinadi va ta’lim muhitida psixologik barqarorlik ta’minlanadi.
“Men-tasdiqlar” (Men-murojaat) usuli	Raqibni ayblashga qaratilgan “Sen-tasdiqlar”dan voz kechib, muammo tufayli o‘z his-tuyg‘ularini anglatishga qaratilgan “Men-murojaat”dan foydalanish.	Opponent ko‘nglida agressiya uyg‘otmaydi, ochiq va samimiy muloqotni davom ettirishga sharoit yaratadi.
Faol va reflektiv tinglash texnologiyasi	Suhbatdoshni to‘g‘ri tushunish uchun aniqlashtirish, parafrazalash, his-tuyg‘ularini aks ettirish va xulosalash usullarini qo‘llash.	Muloqotda mutlaq o‘zaro tushunishga erishiladi, raqibning mudofaa reaksiyasiga o‘tishi to‘xtatiladi.
“Hamkorlik” (“G‘olib-G‘olib”) strategiyasi	O‘z manfaatlari bilan bir qatorda raqibning ham manfaatlarini to‘liq qondiradigan yechim topishga qaratilgan qo‘shma harakat.	Har ikki tomon qoniqqan holda ziddiyatdan chiqadi, shaxsga emas, bevosita muammoga qarshi kurashiladi.
Sanogen fikrlash va o‘z-o‘zini boshqarish	Emotsiyalar, ehtiyojlar va istaklarni nazorat qilish, relaksatsiya, reaksiyani kechiktirish va hissiy tiyilish usullari.	Ichki ziddiyat va taranglik kamayadi, o‘qituvchiga vaziyatni xotirjam va oqilona tahlil qilish imkoni yaratiladi.

Jadvalda keltirilgan mexanizmlarning amaliy samaradorligini ta’minlash maqsadida oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoniga zamonaviy va innovatsion yondashuvlarni tizimli tatbiq etish talab etiladi.

Bo‘lajak mutaxassislarda yuqorida ta’kidlangan texnologiyalarni (masalan, “G‘olib-G‘olib” strategiyasi, faol tinglash va “Men-tasdiqlar” usuli) shakllantirishda an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda raqamli vositalardan faol foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ta’lim jarayoniga “Akme-pedagog” mobil ilovasini integratsiya qilish hamda amaliy mashg‘ulotlarni “Pedagogik mahorat” darsligidagi maxsus modullar asosida tashkil etish shular jumlasidandir. Mobil ilova imkoniyatlari yordamida talabalar turli xil pedagogik nizolarni vizual modellashtirish va virtual muhitda konstruktiv qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini mustaqil ravishda mashq qilish imkoniga ega bo‘ladilar.

Ushbu metodlar kompleksining ta’lim amaliyotiga joriy etilishi bo‘lajak o‘qituvchilarda agressiv va destruktiv reaksiyalarni sezilarli darajada pasaytirib, empatik munosabatlarni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Natijada talabalarda ziddiyatli vaziyatni to‘g‘ri tashxis qilish, konfliktogenlardan xoli muloqot o‘rnatish va mos strategiyani tanlash ko‘nikmalari jadal rivojlanadi. Bu esa, o‘z navbatida, tanlangan kompleks yondashuvning oliy ta’lim tizimida yuqori pedagogik va amaliy qimmatga ega ekanligini, bo‘lajak kadrlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvchanligini oshirishdagi o‘rnini tasdiqlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining konfliktologik madaniyati ularning muloqot kompetensiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Ta’lim jarayoniga interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali pedagogik nizolarni samarali boshqarish, o‘z navbatida, yosh mutaxassislarning kasbiy adaptatsiyasini tezlashtiradi, ziddiyatlarni ijobiy hal etish malakasini oshiradi hamda ta’lim muassasalarida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «Donishmand ziyosi», 2020. – B. 12-21.
2. Azimova O.A. “Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining konfliktologik madaniyatini rivojlantirishning mazmuni”. NamDU Ilmiy Axborotnomasi 2024-4-son. ISSN:2181-1458 №4-B.944-946
3. Анцупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология: Учебник для вузов. — М.: ЮНИТИ, 2020. (Keltirilgan manba: Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya, 2020. – B. 14-16).
4. Djumayeva S.A. Pedagogik korreksiya vositasida oliy ta’lim jarayonida yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etish texnologiyasi: Ped.fanl. d-ri (PhD) ... Diss. – T., 2020. – Б. 69.
5. Рыбакова М.М. Конфликт и взаимодействие в педагогическом процессе. — М.: Просвещение, 1991.